

HUDUDIIY RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA

Sharipova Shahribonu Adilbek qizi

Ranch universiteti magistranti

Annotatsiya

Tezisdagi hududiy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajriba qiyosiy-institutsional yondashuv asosida o'rganildi. Estoniyaning integratsion, Janubiy Koreyaning platforma va Xitoyning sanoat modeli xalqaro indekslar hamda rasmiy statistik ma'lumotlar orqali taqqoslandi. Natijada yagona standartlar, markaziy muvofiqlashtirish, hududiy ijro erkinligi va muntazam monitoring samarali rivojlanishning umumiy institutsional omillari sifatida belgilandi. Aniqlangan tamoyillarni milliy sharoitga moslashtirish hududiy axborot almashinuvini yaxshilash, proaktiv xizmatlarni rivojlantirish va raqamli industriyani qo'llab-quvvatlash hamda natijalarni xolis baholash imkonini kengaytirishga yo'naltirildi.

Kalit so'zlar: hududiy raqamli iqtisodiyot, xorijiy tajriba, raqamli boshqaruv, institutsional model, raqamli xizmatlar, monitoring.

Аннотация

В тезисе зарубежный опыт развития региональной цифровой экономики был изучен на основе сравнительно-институционального подхода. Интеграционная модель Эстонии, платформенная модель Южной Кореи и промышленная модель Китая были сопоставлены по международным индексам и официальным статистическим данным. В результате единые стандарты, централизованная координация, самостоятельность регионального исполнения и регулярный мониторинг были определены как общие институциональные условия эффективного развития. Адаптация выявленных принципов к национальным условиям была направлена на улучшение регионального обмена данными, развитие проактивных услуг и поддержку цифровой индустрии.

Ключевые слова: региональная цифровая экономика, зарубежный опыт, цифровое управление, институциональная модель, цифровые услуги, мониторинг.

Abstract

The thesis examined experience of regional digital development through a comparative institutional approach. Estonia's integration model, South Korea's platform model, and China's industrial model were compared using indices and official statistics. Unified standards, central coordination, regional autonomy, and regular monitoring were identified as institutional conditions for effective development. Adapting these principles to national circumstances was intended to improve regional data exchange, expand proactive public services, support the digital industry, and strengthen territorial digital transformation assessment.

Keywords: regional digital economy, international experience, digital governance, institutional model, digital services, monitoring.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotning hududiy darajada rivojlanishi institutsional yechimlar sifatiga kuchli bog'liq. Nazariy adabiyotda raqamli iqtisodiyot uch qatlamli tuzilma sifatida talqin etilib, uning o'zagini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaratuvchi sektor, o'rta qatlamini platforma va raqamli xizmatlar, tashqi qatlamini esa texnologiyalarni qo'llash hisobiga o'zgargan an'anaviy tarmoqlar tashkil etadi [1]. Ushbu qatlamlarning har biri turli institutsional qo'llab-quvvatlashni talab qilgani sababli, mamlakatlar o'z sharoitidan kelib chiqib bir-biridan farq qiluvchi rivojlanish yo'llarini tanlagan.

Xalqaro tashkilotlarning baholashiga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli transformatsiyadan olinadigan iqtisodiy foyda infratuzilma, ko'nikma va institutlar o'rtasidagi mutanosiblikka bog'liq bo'ladi; ulanish imkoniyatining o'zi yetarli shart hisoblanmaydi [2]. Ushbu xulosa xorijiy amaliyotni o'rganishda e'tiborni texnik yechimlardan ko'ra institutsional mexanizmlarga qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Elektron hukumat rivojlanishi bo'yicha xalqaro baholashda yetakchilik qilayotgan mamlakatlar qatorida Daniya, Estoniya va Singapur turibdi; indeksning jahon bo'yicha o'rtacha qiymati 2022-yildagi 0,6102 dan 2024-yilda 0,6382 ga ko'tarildi va 76 ta mamlakat «juda yuqori» guruhga kirdi [3]. Yetakchilar tarkibining barqarorligi ularning tajribasini o'rganish amaliy qiymati yuqoriligini bildiradi. Maqolaning maqsadi - hududiy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish va undan milliy amaliyotga moslashtiriladigan tamoyillarni ajratib ko'rsatishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli rivojlanishni hududiy darajada boshqarish masalasi Yevropa Ittifoqining siyosiy hujjatlarida yaxlit monitoring tizimi shaklida rasmiylashtirilgan. «Raqamli o'n yillik» siyosat dasturining 2025-yilgi hisoboti raqamli transformatsiyaning to'rtta maqsadli sohasi - raqamli infratuzilma, biznesning raqamlashuvi, raqamli ko'nikmalar va davlat xizmatlarining raqamlashuvi - bo'yicha erishilgan natijalarni baholadi hamda 27 ta mamlakat uchun alohida hisobot tayyorladi [4]. Ushbu yondashuvning qiymati shundaki, u milliy va hududiy darajadagi harakatlarni yagona indikatorlar majmui orqali qiyoslash imkonini beradi.

Hisobot paketida keltirilgan baholashga ko'ra, belgilangan maqsadlarga erishish ittifoq yalpi ichki mahsulotiga 1,8 foizgacha qo'shimcha o'sish beradi, a'zo davlatlarning milliy strategik yo'l xaritalarida esa umumiy qiymati 288,6 milliard yevroga teng chora-tadbirlar nazarda tutilgan [5]. Ushbu raqamlar raqamli siyosatning iqtisodiy samarasi o'lchanadigan kattalik ekanini va uni uzoq muddatli rejalashtirish obyekti sifatida ko'rish mumkinligini tasdiqlaydi. Ilmiy adabiyotda mazkur tajriba ko'pincha «muvofiqlashtirilgan markazlashuv» modeli sifatida ta'riflanadi: standartlar va monitoring markaziy darajada belgilanadi, amalga oshirish esa mahalliy darajaga qoldiriladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot qiyosiy-institutsional tahlil usulida olib borildi. Tahlil birligi sifatida mamlakat darajasidagi raqamli boshqaruv modeli olindi, qiyoslash mezonlari esa uchta guruhga ajratildi: ma'lumot almashish va integratsiya mexanizmi, xizmat ko'rsatish modeli hamda raqamli industriyani rivojlantirish vositalari. Har bir model bo'yicha natijaviylik xalqaro indekslarning rasmiy qiymatlari va milliy statistika ma'lumotlari orqali tekshirildi.

Davlat boshqaruvining raqamli yetukligini baholashda Jahon bankining GovTech yetuklik indeksi metodologiyasi tayanch sifatida olindi. Indeks 198 ta iqtisodiyot bo'yicha to'rtta yo'nalishni - asosiy davlat tizimlari va umumiy raqamli infratuzilma, onlayn xizmatlar yetkazib berish, raqamli fuqarolik ishtiroki hamda islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi omillarni - 48 ta indikator orqali o'lchaydi; uning jahon bo'yicha o'rtacha qiymati 2022-yildagi 0,552 dan 2025-yilda 0,589 ga ko'tarildi [6]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining raqamli hukumat indeksi esa raqamli boshqaruvni oltita o'lchov bo'yicha - loyihalashda raqamlilik, ma'lumotga asoslanganlik, platforma sifatidagi davlat, ochiqlik, foydalanuvchiga yo'nalganlik va proaktivlik - baholaydi [7]. Ushbu ikki metodologiya birgalikda institutsional modellarni o'lchanadigan mezonlar asosida qiyoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchi model - integratsion model - Estoniya amaliyotida shakllandi. Ushbu mamlakat davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazishni ma'lumot almashishning yagona qatlamini yaratishdan boshladi va fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlarning deyarli barchasini raqamli ko'rinishga keltirdi; islohotning iqtisodiy samarasi yillik yalpi ichki mahsulotning ikki foiziga teng tejamkorlik sifatida baholanadi. Barcha maktablarda keng polosali ulanishni ta'minlash va o'qituvchilarni metodik tayyorlash orqali hududlararo raqamli tafovutni kamaytirishga erishildi, aholining deyarli barchasi elektron identifikatsiya vositasiga ega bo'ldi [8].

Modelning texnik o'zagini markazlashmagan ma'lumot almashish tizimi tashkil etadi. Tizim davlat va xususiy sektor subyektlarining o'zaro xavfsiz murojaatini ta'minlaydi, har bir murojaat qayd etiladi va fuqaro o'z ma'lumotlaridan kim foydalanganini tekshirish imkoniga ega bo'ladi; 2024-yilda tizim orqali 2,7 milliarddan ortiq so'rov qayta ishlendi. Huquqiy darajada ma'lumotni faqat bir marta so'rash tamoyili mustahkamlangan, bu takroriy hujjat talabini bartaraf etadi va proaktiv xizmatlar uchun asos yaratadi [9]. Tizimning ochiq kodli arxitekturasini va davlat-xususiy sheriklik asosida yaratilgani uni boshqa mamlakatlarga ko'chirish imkonini kengaytirdi [10].

Ikkinchi model - platforma modeli - Janubiy Koreya amaliyotida rivojlandi. Mamlakat raqamli hukumat indeksida izchil yetakchilik qilib, 2023-yilgi baholashda 0,935 ball to'pladi, ushbu ko'rsatkich tashkilot bo'yicha o'rtacha 0,567 ball darajasidan sezilarli yuqori bo'ldi; proaktivlik o'lchovi bo'yicha ball 0,5 dan 0,934 gacha o'sib, mamlakatni birinchi o'ringa olib chiqdi, ma'lumotga asoslanganlik o'lchovi bo'yicha esa maksimal baho qayd etildi [11]. Keyingi baholash davrida mamlakat 0,95 ball bilan yetakchilikni saqlab qoldi, tashkilot bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich esa 0,61 dan 0,70 ga

ko'tarildi; umumiy o'sish ma'lumotlarni boshqarish tizimlarining mustahkamlanishi, interoperabellik infratuzilmasining kengayishi va xizmat standartlarining joriy etilishi hisobiga ta'minlandi [12]. Modelning o'ziga xos jihati - davlat xizmatlarini yagona raqamli platforma atrofida birlashtirish va ularni sun'iy intellekt vositalari bilan boyitish.

Uchinchi model - sanoat modeli - Xitoy amaliyotida namoyon bo'ldi. Rasmiy statistikaga ko'ra, 2024-yilda raqamli iqtisodiyotning o'zak tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymat 14,0891 trillion yuanni tashkil etib, yalpi ichki mahsulotning 10,5 foiziga teng bo'ldi; bir yil avval ushbu ulush 9,9 foizni tashkil etgan edi. O'zak tarmoqlar tarkibida raqamli texnologiyalarni qo'llash sohasi 6,1928 trillion yuan bilan 44,0 foizni, raqamli mahsulot ishlab chiqarish 4,8145 trillion yuan bilan 34,2 foizni, ma'lumotga asoslangan tarmoqlar 2,6519 trillion yuan bilan 18,8 foizni, raqamli mahsulot xizmatlari esa 429,8 milliard yuan bilan 3,1 foizni egalladi [13]. Ushbu tuzilma raqamli iqtisodiyotning real sektor bilan chuqur bog'langanini va hududiy sanoat klasterlari orqali o'sganini ko'rsatadi.

Uchala model bo'yicha olingan natijalar 1-jadvalda umumlashtirildi.


1-jadval

Hududiy raqamli rivojlanishning xorijiy modellari: qiyosiy tavsif¹

Mamlakat	Tayanch institutsional mexanizm	O'lgangan natija	Manba
Estoniya	Markazlashmagan ma'lumot almashish qatlami, raqamli identifikatsiya, «bir marta so'rash» tamoyili	Davlat xizmatlarining deyarli to'liq raqamlashuvi; 2024-yilda 2,7 mlrd dan ortiq so'rov qayta ishlandi	[8], [9]
Janubiy Koreya	Davlat xizmatlarining yagona raqamli platformasi, proaktiv xizmatlar, ochiq ma'lumotlar	Raqamli hukumat indeksida 0,935 ball 2023-yilda va 0,95 ball (keyingi baholash davri)	[11], [12]
Xitoy	Raqamli industriyani hududiy klasterlar orqali o'stirish, real sektorni raqamlashtirish	O'zak tarmoqlarda 14,0891 trln yuan qo'shilgan qiymat - YaIMning 10,5 foizi 2024-yilda	[13]
Yevropa Ittifoqi	Yagona indikatorlar tizimi asosida yillik monitoring va milliy yo'l xaritalari	Yo'l xaritalarida 288,6 mlrd yevroga teng chora-tadbirlar; YaIMga 1,8 foizgacha qo'shimcha samara	[4], [5]

Qiyoslash modellarning tashqi ko'rinishi turlicha bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy institutsional o'zak mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu o'zak to'rtta elementdan iborat: yagona texnik va huquqiy standartlar, markaziy muvofiqlashtiruv organi, hududiy darajadagi bajaruv erkinligi hamda natijalarni muntazam o'lchab boruvchi monitoring mexanizmi. Umumiy o'zak va modellar o'rtasidagi munosabat 1-rasmda aks ettirildi.

¹ Manba: [4], [5], [8], [9], [11], [12] va [13] manbalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1-rasm. Hududiy raqamli rivojlanishning xorijiy modellari va ularning umumiy institutsional o'zagi¹

Xorijiy amaliyotning milliy sharoitga moslashtirilishi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan tashkiliy tuzilma orqali amalga oshirilishi mumkin. Strategiya hududlar va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlarining bajarilishini muvofiqlashtiruvchi komissiya faoliyatini, elektron hukumat, raqamli industriya, raqamli ta’lim va raqamli infratuzilma yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘l xaritalarini nazarda tutadi [14]. Mazkur tuzilma xorijiy modellarning umumiy o‘zagiga mazmunan yaqin bo‘lib, unda moslashtirilgan yechimlarni joriy etish uchun zarur institutsional asos mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qiyosiy tahlil hududiy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda uchta mustaqil model shakllanganini aniqladi. Integratsion model ma’lumot almashishning yaxlit qatlamini birinchi o‘ringa qo‘yadi, platforma modeli xizmatlarni foydalanuvchi atrofida birlashtiradi va proaktiv ko‘rinishga o‘tkazadi, sanoat modeli esa raqamli texnologiyalarni real sektor bilan bog‘lab, hududiy klasterlar orqali iqtisodiy o‘rishni ta’minlaydi. Modellarning barchasi yagona standartlar, markaziy muvofiqlashtiruv va natijaviy monitoring uyg‘unligiga tayanadi.

Tahlil asosida quyidagi takliflar shakllantirildi: hududiy axborot tizimlari o‘rtasida ma’lumot almashishni yagona standart asosida tashkil etish va takroriy hujjat so‘rash amaliyotini bosqichma-bosqich qisqartirish; elektron xizmatlarni proaktiv ko‘rinishga o‘tkazish bo‘yicha pilot loyihalarni hududlar kesimida yo‘lga qo‘yish; raqamli industriyani hududiy o‘zaklar - axborot texnologiyalari markazlari va o‘quv maydonchalari - atrofida shakllantirish; raqamli rivojlanish indikatorlarining yagona majmuini joriy etib, natijalarni yillik hisobot shaklida e’lon qilib borish.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

Taklif etilgan tamoyillar hududiy raqamli rivojlanish dasturlarini loyihalashda va ularning samaradorligini baholashda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin. Keyingi tadqiqotlarda har bir modelning milliy sharoitga moslashuv darajasini empirik usullarda o'lchash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bukht R., Heeks R. Defining, Conceptualising and Measuring the Digital Economy. Development Informatics Working Paper No. 68. - Manchester: Centre for Development Informatics, University of Manchester, 2017. URL: <https://diode.network/wp-content/uploads/2017/08/diwp68-diode.pdf>
2. UN Trade and Development (UNCTAD). Digital Economy Report 2024: Shaping an environmentally sustainable and inclusive digital future. - Geneva: United Nations, 2024. URL: <https://unctad.org/publication/digital-economy-report-2024>
3. United Nations Department of Economic and Social Affairs. UN E-Government Survey 2024. - New York: UN DESA, 2024. URL: <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-2024>
4. European Commission. State of the Digital Decade 2025 report. - Brussels, 2025. URL: <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/library/state-digital-decade-2025-report>
5. European Commission. 2025 State of the Digital Decade package. - Brussels, 2025. URL: <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/2025-state-digital-decade-package>
6. World Bank. GovTech Maturity Index (GTMI). - Washington, DC: World Bank Group. URL: <https://www.worldbank.org/en/programs/govtech/gtmi>
7. OECD. Digital Government Review of Korea: Strengthening governance, investment, and skills for digital government. - Paris: OECD Publishing, 2025. URL: https://www.oecd.org/en/publications/digital-government-review-of-korea_9defc197-en/full-report/strengthening-governance-investment-and-skills-for-digital-government_a4dabc49.html
8. Centre for Public Impact. e-Estonia: the information society since 1997. URL: <https://centreforpublicimpact.org/public-impact-fundamentals/e-estonia-the-information-society-since-1997/>
9. Frost & Sullivan Institute. Why Estonia Is Europe's Digital Powerhouse: A Study in E-Governance Transformation. - 2026. URL: <https://frostandsullivaninstitute.org/why-estonia-is-europes-digital-powerhouse-a-study-in-e-governance-transformation/>
10. Hertie School. E-Estonia: Does the country's digital governance live up to the hype? - Berlin, 2022. URL: <https://www.hertie-school.org/en/digital-governance/research/blog/detail/content/e-estonia-does-the-countrys-digital-governance-live-up-to-the-hype>
11. Ministry of the Interior and Safety of the Republic of Korea. Current Status of International Cooperation in Digital Government. URL:

<https://www.mois.go.kr/eng/sub/a03/evaluationbyInternationalOrganizations/screen.d>
[O](#)

12. Korea, Australia and Portugal ranked top for digital government // Global Government Forum. - 2025. URL: <https://www.globalgovernmentforum.com/korea-australia-and-portugal-ranked-top-for-digital-government/>

13. National Bureau of Statistics of China. Value Added of China's Core Industries of the Digital Economy Takes up 10.5% of GDP in 2024. - Beijing, 2025. URL:

https://www.stats.gov.cn/english/PressRelease/202512/t20251231_1962222.html

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son «“Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/doc-passport/-5030957>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-YIL, 16- OKTABR, MAXSUS SON, IV-V-SHO'BALAR

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**